



RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR  
KENGASHI

# «ХОТИН-ҚИЗЛАР ВА ЭРКАКЛАР ЎРТАСИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИ» МАВЗУСИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ

МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ





---

**RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR  
KENGASHI**

**«ХОТИН-ҚИЗЛАР ВА ЭРКАКЛАР  
ЎРТАСИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИ»  
МАВЗУСИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
АНЖУМАНИ  
МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ**

Toshkent – 2021

**Tahrir hay'ati:**

Saidova Sayyora Alisher qizi – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD  
Fotima Tohirova

**Dizayner:**

Ulug'bek Saidov

Динимизда аёлларни кадрлаш, уларни асраб-авайлаш каттиқ тарғиб қилинган амалдир. Чунки улар – оналаримиз, жуфтларимиз ва сингилларимиздир. Қадимдан Ислom динига амал қилиб келган халқимизнинг миллий қадриятларида аёл зоти эъзозланади. Давлатимиз томонидан ҳам аёлларга алоҳида ҳурмат-эътибор кўрсатилиб, уларни ҳар жиҳатдан ҳимоя қилиб келинмоқда.

Аёлларсиз ҳаётни, таракқиётни тасаввур қилиб бўлмайди. Улар жамиятнинг етакчи кучлари, моҳир ва уддабурон мураббийлари, меҳрибон ва оқила тарбиячиларидир.

Бугун жамиятнинг деярли ҳеч бир муаммосини, ҳатто келажаги буюк давлат қуриш вазифасини ҳам аёллар иштирокисиз ҳал қилиш мушкул. Келажаги буюк давлат қуриш борасида биз, энг аввало, ёш авлодга таянамиз. Фарзандни камолга етказиш оилавий тарбияни тўғри йўлга қўйишдан бошланади. Оиладаги ўғил-қизларимизнинг қандай инсонлар бўлиб етишиши ҳаммадан бурун аёлларимизга боғлиқ.

Республикамиз БМТнинг “Хотин-қизларга нисбатан камситишларнинг барча шакллари йўқ қилиш ҳақида”ги конвенциясига, Халқаро меҳнат ташкилотининг “Оналикни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Меҳнат ва машғулотлар соҳасидаги камситишлар тўғрисида”ги конвенцияларига МДХ давлатлари ичидан биринчилар қаторида қўшилди. Бу ҳужжатлар хотин-қизлар манфаатларини муҳофаза қилиш ва уларнинг оиладаги ва умуман жамиятдаги мавқеини мустаҳкамлашга қаратилган меъриий-ҳуқуқий ҳужжатлар комплексининг таркибий қисмидир.

Мухтарам Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев раҳнамолигида хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, саломатлигини муҳофаза қилиш, интилиш ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, уларга муносиб меҳнат ва яшаш шароитларини яратишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

**То'plamga Respublika Oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilar, doktorant, pedagoglar, magistrant va talabalarining maqola va tezislari kiritilgan.**

*Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar.*

## **O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK: ISLOHOT VA USTUVOR YO‘NALISHLAR STRATEGIYASI**

**Turdiyev Bexruz Sobirovich**

*Buxoro davlat universiteti izlanuvchisi*

Bugun “Yangi O‘zbekiston – Yangicha dunyoqarash” shiori asosida mamlakatimizning barcha jabhalarda keng qamrovli islohotlar, o‘zgarish va yangilanishlar amalga oshirilib, bu jarayonda xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi mavqei tobora yuksalib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’birlari bilan aytganda, “Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi” [1].

Harakatlar strategiyasidagi ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonida yurtimizda xotin-qizlarning mehnatda, madaniy-ma’naviy sohalarda, jamiyat hayotidagi roli har qachongidan ham dolzarblashib, o‘zbek ayolining jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi mas’uliyati oshib, o‘zining faol tashabbusi bilan davlat va nodavlat tashkilotlarda erkaklar bilan teng huquqli shaxs sifatida faol ishtirok etib kelmoqda.

Aslida “gender” atamasi - inglizcha so‘z bo‘lib, “gender” – “zot” degan ma’noni anglatadi. Bu tushuncha insonning jamiyatda o‘zini tutishini ifodalaydi, ya’ni ayollar, erkaklar, qizlar, o‘g‘il bolalar uchun teng huquqli, mas’uliyatli imkoniyat, qadriyat, natijalarning yaratilishi hisoblanadi.

Demak, gender tenglik – bu nafaqat ayollarga tegishli, balki u erkaklarning ham huquq va majburiyatlarini o‘zida ifodalaydi. Keng ma’noda, gender tenglik ayollar va erkaklarning turli manfaat, ehtiyoj, huquq va majburiyatlarini o‘zida aks ettirib, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi xilma-xillikni nazarda tutadi.

Hozirgi integratsiyalashuv jarayonida ijtimoiy tenglik, barqarorlik va tinchlikni o‘rnatishda ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta’minlash muhim masalalardan hisoblanib, uning yechimini topish xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasida 70/1-sonli “Dunyomizni o‘zgartirish. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi” (BRM) rezolyutsiyasi qabul qilinib, ushbu hujjat kompleks xarakterga ega 17 maqsad va 169 vazifani o‘z ichiga olgan [2].

BRMdagi belgilangan 5-maqsad: “Gender tengligini ta’minlash, barcha ayol va qiz bolalarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” masalasiga bag‘ishlangan hisoblanib, unda ayollar va qizlarning asosiy huquq va imkoniyatlaridan mahrum qiladigan hamda ularni yechmasdan turib farovon jamiyat mavjud bo‘lmaydigan gender tengsizligi muammolarini bartaraf etish, ushbu maqsadga erishi uchun esa, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikni, jumladan, ta’lim, mehnatda bandlik va har qanday kamsitishlarga barham berilishiga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zlagan.

Jahon mamlakatlari siyosatida ushbu maqsadlar 2030 yilgacha o‘z yechimini topib,

inson taraqqiyotiga xizmat qilishidan katta umid qilinmoqda. O‘zbekiston ham bu global jarayonlardan chetda emas. Jumladan, mamlakatimiz 2015 yil 25 sentyabrda “Barqaror Rivojlanish Maqsadlari” xalqaro shartnomasiga dunyoning 193 mamlakati bilan birga qo‘shildi [3].

***Shunga muvofiq, O‘zbekistonda ham BRMning 5-maqsadini amalga oshirish yuzasidan quyidagi milliy vazifalarbelgilab olindi:***

➤ Hamma joyda barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish;

➤ Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini, shu jumladan, odam savdosi, jinsiy ekspluatatsiya hamda ekspluatatsiyaning boshqa shakllarini tugatish;

➤ Erta nikohlar va zo‘rlab nikohlashni tugatish;

➤ Kommunal xizmatlar, infratuzilma va ijtimoiy himoya tizimlarini taqdim etish orqali parvarishlash va uy xo‘jaligini yuritish bo‘yicha haq to‘lanmaydigan mehnatni tan olish va qadrlash, milliy sharoitlarni hisobga olgan holda oilada xo‘jalik yuritish uchun umumiy mas‘uliyat tamoyilini rag‘batlantirish;

➤ Xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida har tomonlama ishtirok etishlarini hamda qaror qabul qilishda yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash;

➤ Reproduktiv salomatlikni asrash sohasida umumqamrovli tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish uchun sog‘liqni saqlash xizmatlaridan umumiy foydalanishni ta‘minlash;

➤ Xotin-qizlarni ularning huquq va manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirishlarida qo‘llab-quvvatlaydigan dasturlarni kengaytirish;

➤ Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashish maqsadida yuqori samarali texnologiyalar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faolroq foydalanish;

➤ Gender tenglik tamoyillarini boshqaruvning turli bosqichlarida davlat dasturlarini qabul qilish jarayoniga to‘la singdirish [4].

Afsuski, bugun dunyo davlatlari tomonidan gender tenglikka harakat qilinishiga qaramasdan, ammo gender muammosi, ya‘ni gender tengsizlik saqlanib qolinmoqda. Bu tengsizlikni ta‘lim, ish haqi, umr ko‘rish davomiyligi, hokimiyat va boshqaruv sohalarida ishtirok etish jarayonlarida kuzatish mumkin.

Jumladan, bugun ham dunyoda erkak va ayollar tengligi inkor etilib, asossiz bid‘at, nosog‘lom qarash va fikrlar orqali ijtimoiy taraqqiyotda turg‘unlik keltirib chiqarmoqda. “2014 yil statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, jahonda 143 ta mamlakat o‘z konstitutsiyasida ayollar va erkaklar teng huquqli ekanligini kafolatlagan bo‘lsa, ammo 52 mamlakat hanuzgacha buni o‘z Konstitutsiyasiga kiritimagan”[5].

Demak, dunyoda ayollarning huquqlarini himoya qilish, xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish, ularning jamiyat hayotidagi rolini yanada kuchaytirish va amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash barcha mamlakatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishini davr taqozo etmoqda.







## Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish


Parvarishlash va uy ishlari bo'yicha haq to'lanmaydigan mehnatga sarflanadigan **15,5 % Vaqt ulushi**



### Rahbar lavozimlaridagi ayollarning ulushi, %



### Mobil telefonga ega odamlar ulushi, jins kesimida



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI



1-rasm. O'zbekistonda 2014-2018 yillarda Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi statistik ma'lumoti

Q.H.Abdurahmonov tadqiq etishicha, bugun gender tenglikning jahon miqyosidagi notengligini quyidagi omillar misolida ko'rish mumkin:

- jahon aholisining 50 foizdan ko'prog'ini ayollar tashkil etadi, lekin ular jahon mulkining atigi 1 foiziga egalik qiladi;
- jahonda bajariladigan ishlarning uchdan ikki qismini ayollar bajaradi, ammo ular jahonda olinadigan foydaning o'ndan bir ulushiga ega;

- savodsiz va ishsizlarning ko‘pchiligi - 60 foizdan ko‘prog‘ini xotin-qizlar tashkil qiladi;
- jahondagi har uch ayoldan bittasi umri davomida hech bo‘lmaganda bir marta zo‘ravonlikdan, ko‘pincha o‘z eridan jabr ko‘rgan;
- jahondagi barcha parlamentlar a‘zolarining 20 foizi ayollardir;
- ayollar haq to‘lanmaydigan uy ishlarining asosiy qismini bajaradilar;
- xotin-qizlar mehnatga haq to‘lash darajasi past bo‘lgan sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohasida ish bilan bandlarning ko‘pchiligini tashkil etadi, erkaklar esa ish haqi yuqori bo‘lgan iqtisodiyotning transport, aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarmoqlarida aksariyat ko‘pchilikdir [6].

Mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi doirasida xotin-qizlar kamoloti, orzu-istaklarini hisobga olib, ularning erkin faoliyat yuritishi, ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yilda 14 martdagi “Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 noyabrdagi “Xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Prezidentimizning 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari singari normativ-huquqiy hujjatlar yurtimizdagi xotin-qizlar va ayollarga davlat tomonidan berilayotgan e‘tiborining yorqin ifodasidir.

Zero, “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish” jarayonida ayol va erkaklarning teng huquqliligi ularning teran dunyoqarash, yangicha fikrlash, tafakkur qilish, jamiyat ravnaqidagi o‘rnini his etgan holda yangi davrga xos va mos tarzda yashashi, faoliyat yuritishi hamda yosh avlodning ma‘naviy kamolotga erishuvini ta‘minlashida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi yangi O‘zbekistonda yuz berayotgan startegik islohotlar o‘z-o‘zidan xotin-qizlarimizni jamiyatimizdagi barcha sohalardagi rivojlanish jarayonida faol ishtirok etishi va davr bilan hamnafas bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil, 8 mart, №50.
2. O‘zbekiston Respublikasida Milliy Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishish ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik to‘plam. –T.: “O‘zstat”, 2019. –B.3.

3. Saidova L. O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarining bajarilishi va ta’lim sohasining istiqbollari. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. –Toshkent: 2018. №1. –B.19.

Gender tengligini ta’minlash, barcha ayol va qiz bolalarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish. // <http://nsdg.stat.uz/uz/goal/8>

4. Goal 5: Achieve gender equality and empower all women and girls //<https://www.un.org/sustainable-development/gender-equality/>.

5. Abdurahmonov Q.H. Inson taraqqiyoti. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012. –B.324.

6. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal // Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2019. - T. 1. - №. 6. - C. 229-233.

7. Sobirovich T. B. Strategy of Renewal of National Spirituality of Uzbekistan // International Journal on Integrated Education. - 2020. - T. 3. - №. 8. - C. 122-126.

8. Sobirovich T. B., Murodogli I. S. The strategy for the implementation of the modern governance system in Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2020. - T. 10. - №. 5. - C. 741-748.

9. Sobirovich T. B. Strategy of spiritual renewal in Uzbekistan //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. - 2020. - T. 24. - №. 06.

10. Sobirovich T. B. The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). - 2020. - T. 6. - №. 8. - C. 509-511.

11. Sobirovich T. B. O‘zbekiston demokratik jamiyat taraqqiyoti rivojida ma’naviy yangilanishlar strategiyasining roli //Imom Buxoriy saboqlari. - 2020. - №. 2. - C. 118-121.

12. Turdiev B. S., Yuldashev B. T. THE ISSUE OF AVOIDING CRIMES AMONG YOUNGSTERS IN UZBEKISTAN //Экономика и социум. - 2019. - №. 1-1. - C. 119-122.

13. Turdiyev B. S. SPIRITUAL RENEWAL AND INTERETHNIC RELATIONS IN THE STRATEGY OF ACTIONS //Теория и практика современной науки. - 2018. - №. 3. - C. 85-89.

14. Sobirovich T. B. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND REVIEW. - 2020. - T. 5. - №. 10. - C. 60-65.

15. Turdiyev B. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of eastern and western thinkers //Общество и инновации. - 2020. - T. 1. - №. 1/s. - C. 710-717.

16. Sobirovich T. B. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND REVIEW. - 2020. - T. 5. - №. 10. - C. 60-65.

17. Sobirovich T. B. The Strategy of Cultural Development in Central Asia During Amir Temur and the Temurids Dynasty //Int. J. Sci. Res. in Multidisciplinary Studies. - 2021. - T. 2021.



18. Sobirovich T. B. The Strategy of Cultural Development in Central Asia during Amir Temur and Temurids Dynasty Reign //Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR). - 2021. - Т. 5. - №. 1. - С. 18-22.
19. Sobirovich T. B. Strategy of development of pilgrimage tourism in Uzbekistan // MODERNIZATION OF ISLAMIC CULTURE IN BUKHARA AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SUSTAINABLE TOURISM” International Scientific and Practical Conference, Bukhara. - 2020. - Т. 2. - С. 24.
20. Sobirovich T. B. O ‘zbekistonning ma’naviy yangilanish strategiyasi //Buxoro:“Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti. - 2020. - С. 48.
21. Sobirovich T. B. Evolution of ideas and views on the development of democratic society and spiritual renewals //Scientific Bulletin of Namangan State University. - №. 10. - С. 243-250.
22. Sobirovich T. B. Tourism in Central Asian context //ВЕСТНИК ИНСТИТУТА/СОКРОВИЩНИЦА НАУКИ. - 2019. - №. 2. - С. 732-733.
23. Sobirovich T. B. The national and universal principles of democracy in the Central Asian context //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND REVIEW. - 2021. - Т. 6. - №. 1. - С. 30-34.
24. Turdiyev B. S. CULTURAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF SOCIETY IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF WORLD PHILOSOPHERS //Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. - №. 4. - С. 443-451.
25. Sobirovich T. B., Sharipovna A. F. NEW UZBEKISTAN-NEW STRATEGY OF ADMINISTRATIVE REFORMS //researchgate. net.
26. Sobirovich T. B. Ma’naviy yangilanishlar strategiyasining hayotbaxsh islohotlari: nazariya va amaliyot, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi-O‘zA Ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal) //Tashkent, UzA. - С. 1-12.
27. Turdiev B. S., Saidjonova Z. S. ANCIENT AND MODERN BUKHARA // Экономика и социум. - 2019. - №. 1-1. - С. 117-119.
28. Turdiyev Bexruz Sobirovich. Ma’naviy yangilanish: yangi qaror va hayotbaxsh islohotlar strategiyasi. //Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti. Buxoro: 2018. - № 2 (70). -P.208-213.
29. Turdiyev B. THE CONTRIBUTION OF BOBUR AND BOBURI DYNASTY TO THE RENEWAL OF WORLD CIVILIZATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 5. - №. 5.
30. Turdiyev B. Behbudi’s views on the spiritual renewal of society //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 5. - №. 5.
31. Turdiyev B. SHARQ VA G ‘ARB MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTI MA’NAVIY YANGILANISHLAR MEZONI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 5. - №. 5.

